

**«Kapitalbank» ATB, «Frame Media» MChJ va «OAMBEAUTY» MChJ bilan 8-mart»  
promo-aksiyasida ishtirok etish to'g'risida**

## **OMMAVIY OFERTA**

Ushbu ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda — «Oferta») «*«Kapitalbank» ATB, «Frame Media» MChJ va «OAMBEAUTY» MChJ bilan 8-mart»* nomli promo-aksiyada (keyingi o'rinlarda — «Aksiya») ishtirok etish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatlarini belgilaydi. Aksiya Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi Maevskiy K.L. nomidan harakat qiluvchi «Kapitalbank» Aksiyadorlik Tijorat Banki tomonidan, keyingi o'rinlarda — «**Bank/Tashkilotchi**» deb nomlanadi, «Frame Media» MChJ va «OAMBEAUTY» MChJ bilan birgalikda (keyingi o'rinlarda — «**Hamkorlar**») tashkil etiladi va o'tkaziladi. Bank va Hamkorlar **birgalikda «Tashkilotchilar»** deb yuritiladi. Aksiyaning maqsadi — Bank tomonidan chiqarilgan Visa/Mastercard bank kartalarini kartaning o'zini taqdim etmasdan turib to'ldirish (hisobni to'ldirish) mahsulotini ommalashtirish hamda mijozlar sadoqatini oshirishdan iborat.

Ofertani aksept qilish Ishtirokchi tomonidan Oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilishni anglatadi. Ofertaning amaldagi tahriri Internet tarmog'ida quyidagi manzil bo'yicha joylashtirilgan va foydalanish uchun ochiq: [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) (keyingi o'rinlarda — «Sayt»), shuningdek Bankning mobil ilovasida (keyingi o'rinlarda — «Ilova») mavjud.

### **1. Oferta predmeti va aksept qilish tartibi**

1.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi (soliq rezidentlari) bo'lgan, «Kapitalbank» ATB tomonidan emissiya qilingan Visa/Mastercard bank kartalari egalari hisoblangan ayol jinsiga mansub shaxslar (keyingi o'rinlarda — «Ishtirokchi») ishtirok etishlari mumkin.

1.2. Oferta shartlarini qabul qilish (aksept) deb Ishtirokchining mazkur Ofertaning 3-bo'limida belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishi tushuniladi. Ofertaning amaldagi tahriri Internet tarmog'ida quyidagi manzil bo'yicha joylashtirilgan va foydalanish uchun ochiq: [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz)

1.2. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida Bank va Hamkorlar tomonidan birgalikda o'tkaziladi. Bunda Bank Ishtirokchilar bilan o'zaro hamkorlik qilish, operatsiyalarni hisobga olish hamda g'oliblarni aniqlash qismida Aksiya tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi, Hamkorlar esa Aksiyaning sovrin jamg'armasini moliyalashtirish qismida qatnashadilar.

1.3. Aksiya lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun to'lov talab etilmaydi hamda Bank tomonidan chiqarilgan Visa/Mastercard kartalarini kartaning o'zini taqdim etmasdan turib to'ldirish xizmatini ommalashtirish va mijozlar sadoqatini oshirishga qaratilgan.

1.4. Bank va Aksiya Ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan hollarda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank joylashgan hududdagi iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

1.5. Mazkur Ofertani aksept qilish Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisnolar va/yoki cheklolvsiz to'liq va so'zsiz qabul qilinishini anglatadi va yozma shakldagi bitim tuzish bilan teng kuchga ega hisoblanadi.

1.5.1. Ushbu Ofertani aksept qilgan holda, Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- ushbu Ofertaning barcha shartlari bilan to'liq va batamom tanishganligi, ularga rozi ekanligi hamda ularga rioya etish majburiyatini olganligi;

- Ofertaning mazmuni va uni qabul qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlar Ishtirokchiga tushunarli ekanligi;

- huquqiy layoqatga va muomala layoqatiga ega ekanligi hamda Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun qonuniy huquqqa ega ekanligini tasdiqlashi.

1.6. Tashkilotchi Aksiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish hamda Aksiya shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.7. Ofertani aksept qilar ekan, Ishtirokchi o'z harakatlarini ixtiyoriy ravishda, hech qanday majburlovlarsiz, adashish, aldov, zo'ravonlik yoki tahdid ta'sirisiz amalga oshirayotganini tasdiqlaydi.

1.8. Tashkilotchi Hamkorlarning tovarlari, xizmatlari va faoliyatini reklama qilmaydi hamda Ofertani aksept qilar ekan, Ishtirokchi ular tomonidan taqdim etiladigan sovrinlar va xizmatlar sifati uchun javobgar emasligini tasdiqlaydi.

## **2. Aksiyani o'tkazish muddatlari**

2.1. Aksiya **2026-yil 26-fevraldan 2026-yil 5-martga qadar (ikkala sana ham qo'shilgan holda)** o'tkaziladi.

2.2. Aksiya natijalarini yakunlash va o'yin g'oliblarni aniqlash **2026-yil 5-mart kuni jonli efirda randomayzer dasturidan foydalanilgan holda** amalga oshiriladi.

## **3. Ishtirok etish shartlari**

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Ofertaning 1.1-bandida nazarda tutilgan talablarga mos kelishi lozim. Ishtirokchining ko'rsatilgan talablarga nomuvofiqi aniqlangan hollarda, Tashkilotchi Ishtirokchini Aksiya doirasidagi o'yindan chetlashtirishga haqlidir.

3.2. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Bank tomonidan chiqarilgan Visa/Mastercard bank kartasini «Kapitalbank» ATB bankomatlari orqali mobil telefon raqami bo'yicha kamida bitta kvalifikatsion operatsiya orqali quyidagi miqdorlardan kam bo'lmagan summada to'ldirishi shart:

- kamida 100 (yuz) AQSh dollari miqdorida, yoki
- kamida 1 250 000 (bir million ikki yuz ellik ming) so'm miqdorida.

3.2.1. Quyidagi operatsiyalar kvalifikatsion operatsiyalar sifatida hisobga olinmaydi:

- naqd pul mablag'larini yechib olish bo'yicha operatsiyalar;
- kartadan kartaga o'tkazmalar (P2P o'tkazmalari);
- elektron hamyonlarga o'tkazmalar;
- bekor qilingan va/yoki qaytarilgan operatsiyalar.

3.3. G'alaba qozonish imkoniyatlarini sun'iy ravishda oshirish maqsadida firibgarlik yoki boshqa noinsof harakatlarni amalga oshirgan Ishtirokchilar Aksiya ishtirokchilari safidan chiqarib yuboriladi.

3.4. Bank kvalifikatsion operatsiyalarning qonuniyligi va haqiqiylikini tekshirish, shuningdek ularning haqiqiyliги yoki qonuniyligiga shubha tug'diradigan har qanday operatsiyalarni Aksiyada ishtirok etishdan chiqarib tashlash huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.5. Kvalifikatsion operatsiya amalga oshirilganidan keyin jismoniy shaxs avtomatlashgan tarzda Aksiya Ishtirokchisiga aylanadi. Aksiyada ishtirok etish uchun qo'shimcha ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.

3.6. Tashkilotchi va Hamkorlarning xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlarining Aksiyada ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.

## **4. Sovrin jamg'armasi**

4.1. Aksiyaning sovrin jamg'armasi Hamkorlar mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va quyidagi sovrinlarni o'z ichiga oladi:

4.1.1. «**Frame Media**» **MChJ** tomonidan taqdim etiladigan 55 dyuyimli 5 (besh) dona televizor;

4.1.2. «**Oambeauty**» **MChJ** (Aldo Coppola) tomonidan taqdim etiladigan har biri 1 000 000 (bir million) so‘m nominal qiymatdagi 10 (o‘n) dona go‘zallik saloniga sertifikatlar.

4.2. Bunda o‘yin g‘olibi ushbu Ofertaning 4-bo‘limida nazarda tutilgan sovrin jamg‘armasidan faqat 1 (bir) dona sovringa da‘vogarlik qilishga haqlidir.

## **5. G‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibi**

5.1. G‘oliblar Aksiya o‘tkazilayotgan davr mobaynida ishtirok etish natijalariga ko‘ra tasodifiy tanlash usuli orqali «Random.org» tasodifiy sonlar generatori yoki diapazondan tasodifiy sonni generatsiya qilish yoki ro‘yxatdan tasodifiy tanlash imkonini beruvchi boshqa shunga o‘xshash platformalar yordamida aniqlanadi. Jami 15 nafar g‘olib va 5 nafar zaxira ishtirokchi aniqlanadi.

5.2. Sovrinlarni o‘ynash ijtimoiy tarmoqlardagi Tashkilotchining rasmiy sahifalari (Instagram) yoki rasmiy Telegram kanalida to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir rejimida o‘tkaziladi. O‘yin sanalari o‘zgargan hollarda, Tashkilotchi bu haqda efir boshlanishidan oldin [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) rasmiy saytida yoki ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e‘lon beradi.

5.2.1. Sovrinlar o‘yini quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

- har bir kvalifikatsion operatsiyaga yagona (unikal) identifikatsiya raqami biriktiriladi;
- identifikatsiya raqamlarining umumiy bazasidan tasodifiy sonlar generatori yordamida kamida 15 ta yutuqli raqam g‘oliblari tanlanadi;
- yutuqli raqamlar bilan operatsiyalarni amalga oshirgan Ishtirokchilar g‘olib deb topiladi va sovrinni olish huquqiga ega bo‘ladi;
- agar bir Ishtirokchi birdan ortiq sovrinni yutib olgan bo‘lsa, qo‘shimcha sovrinlar qolgan Ishtirokchilar o‘rtasida qayta o‘ynaladi.

5.3. O‘yin natijalari AKB «Kapitalbank»ning rasmiy veb-saytida — [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) manzilida e‘lon qilinadi.

5.4. Sovrinni topshirish uchun Tashkilotchi g‘olibdan shaxsini tasdiqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ID-karta, pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatni Tashkilotchining filiallaridan birida taqdim etishni talab qilishga haqlidir. Bu jarayon g‘olib Tashkilotchining kontakt-markazi orqali yoki boshqa usulda xabardor qilingandan so‘ng amalga oshiriladi. G‘olib shaxsni identifikatsiya qilish jarayonidan o‘tishni rad etgan hollarda, Tashkilotchi sovrinni berishni rad etishga haqlidir, bunda Tashkilotchi topshirilmagan sovrinni keyingi o‘yinda qayta o‘ynatishga haqlidir.

5.5. Sovrinlarni topshirish barcha kerakli hujjatlar taqdim etilgandan keyin Tashkilotchi hamda Ishtirokchi o‘rtasida sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan so‘ng 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

5.6. Ushbu Aksiya bo‘yicha sovrinni (sovrinlar) olish munosabati bilan yuzaga keladigan barcha tegishli soliqlar va davlat budjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan majburiy to‘lovlar, agar mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda sovrin yutgan Ishtirokchidan ushlab qolinadi.

Hamkorlar, Tashkilotchi bilan kelishilgan holda, sovrinlarni o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi, bunda o‘zgartirilgan sovrinlarning xususiyatlari va qiymati Aksiya reklama materiallarida ko‘rsatilganidan yomonroq (qiymati bo‘yicha past) bo‘lmasligi shart.

5.7. Sovrin (sovrinlar) egasiga aylangan Ishtirokchilar sovrinni pul ekvivalentiga almashtirishni, shuningdek qo‘shimcha to‘lov qilish yoki qiymatlar farqini qaytarish sharti bilan

sovrinni undan qimmatroq yoki arzonroq boshqa sovringa almashtirishni talab qilishga haqli emas.

5.8. G'olib sovrinni olishdan bosh tortgan hollarda, bunday sovrin talab qilinmagan sovrin deb hisoblanadi.

5.8.1. Talab qilinmagan sovrinlar yoki g'oliblar olishdan bosh tortgan sovrinlardan Bank va Hamkorlar o'z xohishiga ko'ra foydalanishga haqlidir, shu jumladan ular boshqa Ishtirokchilar o'rtasida qayta o'ynalishi mumkin.

5.9. Tashkilotchi obyektiv sabablarga ko'ra (texnik nosozliklar, fors-major holatlari va boshqalar) Aksiyani muddatidan oldin to'xtatishga haqli. Bunda mazkur Ofertaning amal qilinishini bekor qilish (yoki to'xtatib turish) to'g'risidagi tegishli axborot hodisa yuz berishidan kamida 12 soat oldin Tashkilotchining rasmiy sayti — [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) ga joylashtiriladi.

5.10. Tashkilotchi Aksiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish yoki Aksiya shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda o'zgartirishlar kiritilishidan kamida 5 kun oldin Tashkilotchining rasmiy axborot internet-resurslari orqali xabarnoma beriladi.

5.11. Talab qilinmagan sovrinlar, shuningdek g'oliblar olishdan bosh tortgan sovrinlardan Bank o'z xohishiga ko'ra foydalanishi mumkin, shu jumladan:

- ular Aksiyaning boshqa Ishtirokchilari orasida qayta o'ynalishi;
- Aksiyaning keyingi bosqichlari sovrin jamg'armasiga kiritilishi;
- Bank va Hamkorlarning boshqa marketing tadbirlarida foydalanilishi mumkin.

5.12. Bank va Hamkorlar sovrinlarni yetkazib berishni amalga oshirmaydi hamda g'oliblarning sovrinni olish bilan bog'liq xarajatlarini, shu jumladan transport xarajatlarini qoplamaydi.

## **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

### **6.1. Ishtirokchi quyidagilarga majbur:**

- 6.1.1. Oferta shartlariga amal qilish;
- 6.1.2. O'zi haqidagi ishonchli va haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etish.

### **6.2. Tashkilotchi quyidagilarga majbur:**

- 6.2.1. Aksiyani Oferta shartlariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- 6.2.2. O'yin o'tkazilish jarayonining shaffofligi hamda sovrinlarning o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash.

### **6.3. Tashkilotchi quyidagilarga haqlidir:**

6.3.1. Aksiya shartlarini o'zgartirish yoki qo'shimcha qilish, bu haqda Ishtirokchilarni rasmiy aloqa kanallari orqali xabardor qilish;

6.3.2. Aksiya shartlari buzilganligi aniqlangan hollarda, hech qanday kompensatsiyasiz sovrinni berishni rad etish;

6.3.3. Oferta shartlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lish.

## **7. Aksiyani to'xtatish yoki o'zgartirish**

7.1. Tashkilotchi obyektiv sabablarga ko'ra (texnik nosozliklar, fors-major holatlari va boshqalar) Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish yoki mazkur Oferta shartlariga o'zgartirishlar kiritishga haqlidir. Bu haqdagi tegishli axborot Tashkilotchining rasmiy veb-sayti — <https://www.kapitalbank.uz> manzilida joylashtiriladi.

7.2. O'zgartirishlar, agar boshqacha tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

## **8. Tomonlarning javobgarligi**

8.1. Tashkilotchi o'z nazoratidan tashqarida bo'lgan telekommunikatsiya tarmoqlari, pul o'tkazmalari tizimlari va texnik vositalar ishida yuzaga kelgan nosozliklar uchun javobgar bo'lmaydi.

8.2. Ishtirokchi taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va Ofertada belgilangan ishtirok etish shartlariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

8.3. Agar Oferta shartlarining lozim darajada bajarilmasligi Tashkilotchining nazorat doirasidan tashqaridagi sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa, Tashkilotchi bunday bajarilmaslik uchun javobgar bo'lmaydi.

8.4. Ishtirokchi o'zi taqdim etgan ma'lumotlarning to'g'riligi hamda Ofertada belgilangan ishtirok shartlariga rioya qilinishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

## **9. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik**

9.1. Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etar ekan, Aksiyada ishtirok etish, g'oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish hamda natijalar haqida xabardor qilish maqsadida Tashkilotchiga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik bildiradi.

9.2. Ishtirokchi, shuningdek, o'zining ismi va tasvirini (fotosurati) Aksiya bilan bog'liq materiallarda, jumladan reklama maqsadlarida Internet tarmog'ida e'lon qilish uchun qo'shimcha kelishuvlarsiz foydalanishga o'z roziligini beradi.

9.3. G'olib Tashkilotchi va/yoki u tomonidan vakolat berilgan uchinchi shaxslar tomonidan o'zining ismi, familiyasi, tasviri, ovozi, shuningdek uning ishtirokidagi foto va video materiallardan, shu jumladan fotosessiyalar, videotasvirga olish jarayonlari, promo-tadbirlar va futbol bo'yicha FIFA World Cup 2026™ Jahon chempionatiga safar davomida yaratilgan materiallardan reklama, marketing va axborot maqsadlarida qo'shimcha mukofot to'lamasdan foydalanilishiga rozilik bildiradi.

## **10. Boshqa shartlar**

10.1. Ushbu Oferta «Kapitalbank» ATB ning rasmiy axborot resurslarida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Aksiyaning o'tkazish muddati yakunlangunga qadar yoki Tashkilotchi tomonidan bekor qilingunga qadar amal qiladi.

10.2. Tomonlar Ofertada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.3. Ushbu Oferta rus tilida e'lon qilingan.

10.4. Aksiya haqidagi batafsil ma'lumotlarni bankning qisqa raqamli ishonch telefoni — **1340** yoki **(+998 71) 200-15-15** telefon raqami orqali olish mumkin.

10.5. Aksiyaning potensial va amaldagi Ishtirokchilarini rasmiy xabardor qilish Tashkilotchining tanloviga ko'ra quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi:

- «Kapitalbank» ATB ning rasmiy veb-sayti ([www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz));

- Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi va kross-platforma messenjerlaridagi rasmiy sahifa va guruhlari;

- Visa kartalari egalari uchun to'g'ridan-to'g'ri xabarnomalar, SMS-xabarlar, mobil ilovadagi push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali.

10.6. Ushbu Ofertaning to'liq matni, shu jumladan barcha Ilovalar va o'zgartirishlar bilan birga, Tashkilotchining rasmiy veb-sayti [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) da «Aksiyalar» bo'limida joylashtiriladi hamda barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq bo'lgan ommaviy hujjat hisoblanadi.

10.7. Aksiyada ishtirok etish shartlari, g'oliblarni aniqlash tartibi, sovrinlarni olish jarayoni va boshqa masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun Ishtirokchilar:

- Tashkilotchining Kontakt-markaziga yagona 1340 raqami orqali murojaat qilishlari;
- «Kapitalbank» ATB ning istalgan filiali yoki bo'limiga murojaat qilib maslahat olishlari;
- Tashkilotchining rasmiy veb-saytidagi qayta aloqa shakli orqali savol yuborishlari mumkin.

10.8. Tashkilotchi tomonidan Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish, Aksiya muddatini uzaytirish yoki shartlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda, tegishli axborot o'z kuchiga kirishidan yoki Aksiya to'xtatilishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Tashkilotchining rasmiy veb-saytida «Aksiyalar» bo'limida e'lon qilinadi.

10.9. Tashkilotchi belgilangan tartibda e'lon qilingan Aksiya to'g'risidagi rasmiy axborot bilan Ishtirokchilar tanishmaganligi, shuningdek uchinchi shaxslardan Aksiya haqida noto'g'ri ma'lumot olinganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

## **XI. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI**

«Kapitalbank» ATB

Manzil: Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi 7. STIR: 207127843 MFO: 01158

Tel.: +998 78 200-15-15 E-mail: [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz)

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasi №: 69, 25.12.2021 yil.